

## **MAKTAB RADIOSI, GAZETASI, TEATR JAMOASI VA TELEGRAM**

### **KANALINI TASHKIL ETISH**

Respublikamiz umumta'lim maktablarida bugungi kunda maktab radiolari faoliyati yo'lga qo'yilmagan. Har bir ta'lim maskanida maktab radiolari faoliyatini tiklash, bunda kerakli qurilmalar bilan jihozlanish (unchalik ko'p mablag' talab etmaydi) va radioda har kuni maktab o'quvchilari ichida eng ko'p baho olgan, qaysidir tanlovda g'olib bo'lgan, boshqa o'quvchilarga o'rnak bo'layotgan yoshlari haqida ma'lumotlar berib borish, hamda radio faoliyatini yuritishda maktab o'quvchilari ichidan shu sohaga qiziquvchilarini navbatli bilan boshlovchilikka qo'yish zarur. Shuningdek maktab o'quvchilarining tug'ilgan kunlari ham radio orqali eshittirilsa yaxshi bo'lar edi. Radio efiri ertalab birinchi soat boshlanguncha va tanaffuslar oralig'ida uzatiladi. Iqtidorli o'quvchilar bilan suhbatlar ham tashkil etish mumkin. Qo'shiqchilik sohasiga qiziqqan o'quvchilarimizni maktab radiosida jonli ijroda kuylashiga imkoniyat bergan bo'lar edik. Qolaversa radio dasturlarida ibratli hikoyalar, shoirlar hayoti va ularning ijod namunalari ham eshittirib borilsa o'quvchilarda adabiyot, san'at sohasiga qiziqishni yanada ortar edi.

Maktab gazetasi faoliyati ham zarur hisoblanadi, imkoniyatga qarab gazetani elektron yoki bosma shaklda tayyorlash mumkin. Maktab gazetasi har chorakda 1 marta nashr etilib, gazeta sahifalarida maktab jamoasining ya'ni o'quvchilar va o'qituvchilarning ijod namunalari, iqtidorli o'qituvchi va o'quvchilar haqida kichik maqolalar berib borish mumkin. Ushbu gazeta faoliyatini tiklash orqali, o'quvchilarni va o'qituvchilarni yanada ijodkorlikka, izlanishga undash mumkin. Gazeta sahifalarida o'z nomini ko'rgan o'quvchilarimizda ijod qilishga va yaxshi o'qishga bo'lgan ishtiyoq yanada ortadi.

Maktab o'quvchilari va ustozlarimiz yordamida har bir maktabda teatr jamoasini shakllantirish joiz. Albatta bunda ushbu sohaga qobiliyati bor o'quvchilar saralab olinadi va ustoz yordamida kichik sahna asarlarini namoyishga tayyorlashadi. Aytaylik har chorakda 1 ta asar namoyishga tayyorlanadi va tayyor bo'lgach maktab o'quvchilariga namoyish etiladi. Imkoniyat bo'lsa yaxshi

yaratilgan sahna asarlari boshqa maktablarda ham namoyishga qo'yilsa, o'zaro tajriba almashilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xatto yiliga bir bora respublika miqiyosida maktab teatr jamoalarining ko'rik-tanlovini ham tashkil etish mumkin.

Hozirgi kunda maktablarimizda turli telegram kanallari va guruhlari mavjud. Endilikda har bir mакtabda shu mакtab nomi bilan ataluvchi maxsus kanal faoliyatini yo'lga qo'yish kerak va unga butun mакtab jamoasi va o'quvchilarining ota-onalarini a'zo qilish lozim. Ushbu tashkil etilgan kanalda har kunlik mакtab yangiliklari, eng ko'p baho olgan o'quvchilar, o'quvchilarining ijod namunalari, mакtabda tashkil etilgan tadbirlar, mакtab o'qituvchilarining ochiq darslaridan namunalar berib borilsa ota-onalarning ham farzandlarini mакtabdagи faoliyati haqida ko'proq ma'lumotlar olishiga imkon berar edik.